

O'QUV LUG'ATCHILIGINING AHAMIYATI

Namangan davlat universiteti talabasi
Sog'inboyeva Shahzoda

Annotatsiya: Ushbu maqolada ona tili ta'limining shaxs tafakkurini shakllantirishdagi o'rni hamda o'quv lug'atchiligining milliy ta'lim tizimidagi ahamiyati yoritilgan. Mustaqillikdan keyingi davrda o'zbek ona tili ta'limining mazmuni, maqsadi va metodikasida amalga oshirilgan tub islohotlar tahlil qilinadi. Maqolada "grammatika grammatika uchun emas, fikrni ifoda etish uchun xizmat qilishi kerak" degan g'oya asosida o'quvchining mustaqil va ijodiy tafakkurini rivojlantirish masalalari ochib beriladi. Shuningdek, Yevropa va Rossiya tajribasida shakllangan o'quv lug'atchiligi sohasining rivojlanish bosqichlari, ilmiy markazlarning faoliyati hamda bu tajribaning o'zbek ta'lim tizimi uchun ahamiyati tahlil etilgan. Sovet davrida rus o'quv lug'atchiligi keng rivojlangan bir paytda, o'zbek maktablari uchun bu sohada tashabbuslar yetarli darajada qo'llab-quvvatlanmagani ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: ijodiy tafakkur, o'quv lug'atchiligi, leksikografiya, mustaqil fikrlash, lingvodidaktika, til tarbiyasi, grammatik metodika, ta'lim islohotlari.

THE IMPORTANCE OF EDUCATIONAL VOCABULARY

Student of Namangan State University
Soginboyeva Shahzoda

Annotation: This article highlights the role of native language education in the formation of individual thinking and the importance of educational vocabulary in the national education system. The fundamental reforms implemented in the content, goals and methodology of Uzbek native language education in the post-independence period are analyzed. The article reveals the issues of developing independent and creative thinking of the student based on the idea that "grammar should serve not for grammar's sake, but for expressing thought." It also analyzes the stages of development of the field of educational vocabulary formed in the experience of Europe and Russia, the activities of scientific centers, and the significance of this experience for the Uzbek education



system. It is shown that while Russian educational vocabulary was widely developed during the Soviet period, initiatives in this area were not sufficiently supported for Uzbek schools.

Keywords: creative thinking, educational lexicography, lexicography, independent thinking, linguistic didactics, language education, grammatical methodology, educational reforms.

Inson shaxsida ruh, tafakkur va til chambarchas bog‘liq. Demak, ijodiy va mustaqil tafakkurli shaxs tarbiyasida ona tili darsi va uni tashkil etuvchi vositalarning roli beqiyos. Mustaqillikning dastlabki yillaridayoq bu talabni bajarishda ta‘limning xizmati muhimligi e‘tirof etilib, davlat ahamiyatiga molik islohotlarni o‘tkazish birinchi o‘rinda ta‘lim tizimdan boshlandi; qator davlat hujjatlari imzolandi. Ona tili ta‘limi ham tubdan isloh qilinib, fanning maqsadi, mazmuni va o‘qitish uslubi yangilandi. Keyingi yillarda har bir o‘zbek millatiga mansub maktab bitiruvchisining ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotning rang-barang jabhalarida, muloqot va munosabatning barcha turida o‘zbek tilidan bemalol, erkin, samarali, to‘g‘ri foydalana olishi, uning cheksiz imkoniyatidan bahramand bo‘lishi, zaruriy ko‘nikma va malakaga ega bo‘lishi lozimligi talab etilib, maktab ona tili ta‘limida o‘quvchini mustaqil va ijodiy fikrlashga yo‘naltirish, milliy o‘zligini tanitish, ongida ma‘naviy-ma‘rifiy inqilob hosil qilishga ko‘proq e‘tibor qaratilmoqda. Negadir ona tili ta‘limi istiqloqlga qadar, milliy ruhni tarbiyalashning muhim vositasi bo‘lishiga qaramay, «grammatika grammatika uchun» shiori asosida ish ko‘rib keldi. Maktab o‘qituvchisi ona tili darsliklarini aniq, lo‘nda, tushunarli, tayyor qoidalar majmui sifatida qabul qilib, darsda shu qoida va ta‘riflarni yodlatish va so‘rash bilan mashg‘ul bo‘lib qoldilar. ¹Vaholanki, ona tili ta‘limi o‘quvchining o‘zbekcha savodxonligi, mustaqil fikrlash qobiliyatini o‘stirish, so‘z boyligini oshirish, tafakkur mahsulini yozma va og‘zaki shaklda savodli bayon qilish ko‘nikmasini rivojlantirish uchun, grammatika murakkab grammatik qoidalarni ko‘r-ko‘rona yodlatish emas, fikrning aniq va lo‘nda ifodasi uchun xizmat qilishga yo‘naltirilmog‘i kerak. ²

Sobiq sho‘ro davrida rusiyzabon maktablar, shuningdek, o‘zbek maktablarida katta soatlarga mo‘ljallangan «Русский язык» darslari va uni tashkil etuvchi vositalar

¹ Mirtojiev. M. —O‘zbek tili leksikologiyasi va leksikografiyasi, Toshkent, 2000.

² Rahimov A. Kompyuter lingvistikasi asoslari. — T.: Akademnashr, 2011.





bilan o'zbek maktablarining «Ona tili» o'qitish vositalari o'rtasida keskin tafovut mavjud bo'lgan. ³Rus maktabida tahsil olgan o'zbek millatiga mansub o'quvchi bilan o'zbek maktabida tahsil olgan o'quvchining tafakkur doirasi, fikr mahsulini og'zaki, yozma tarzda ifodalashi o'rtasida farq borligini tan olishimiz lozim. Rus yoki ingliz maktab o'quvchilarining o'z ona tilida burro-burro, dadil fikr ayta olishi ko'p ta'kidlanadi. Negaki ularda so'z zahiralarini kengaytirish, mustaqil fikrlashga o'rgatish harakatlari ancha ilgari boshlanadi: o'quvchining ish stoli ustidan faqat darslik emas, qator lug'atlar, qo'shimcha ma'lumotnomalar ham o'rin oladi. Bizda nafaqat maktab o'quvchilari, hatto oliy ta'lim muassasalari talabalari orasida ham fikrini dadil, lo'nda, tushunarli, muhimi savodli qilib bayon qila olmaydiganlari ko'plab topiladi. O'zbek tafakkur salohiyati no'noq millat emas, faqat uning ong mahsulini ifodalash ko'nikmalarini rivojlantirish, tilini charhlash, notiqlik mahoratini ro'yobga chiqarishga kengroq e'tibor qaratish kerak. ⁴

Ta'limning zaruriy vositalari sirasini boyitish – darslikka yordamchi qo'llanmalar yaratish masalasi Yevropa pedagogik amaliyotida XIX asrdayoq o'rta tashlanib, XX asr boshlarida ingliz, nemis, fransuz, italyan maktab partalaridan darslik bilan bir qatorda o'quv lug'atlari ham o'rin ola boshladi. Tilshunoslikda yangi lingvodidaktik yo'nalish – o'quv lug'atchiligi tarmog'i paydo bo'lib, umumiy leksikografiyadan ajralib chiqdi. XX asr o'rtalariga kelib ingliz, nemis, fransuz, italyan lug'atchiligi ta'sirida rus leksikografiyasida ham maktab lug'atlari yaratish masalasi bilan shug'ullanuvchi yangi soha yuzaga keldi. O'tgan asrning 50-70-yillarida rus maktablari uchun qator mavzuviy o'quv lug'atlari yaratilib, hukumat ularni katta tirajda nashr qilinishi va o'quvchilar qo'lga yetib borishiga keng imkoniyatlar yaratib bergan. ⁵O'z davrida o'quv leksikografiyasini ularni rivojlantirish, davlat ahamiyatidagi masala darajasiga ko'tarilib, 1966-yilda Moskva davlat universiteti rus tili ilmiy-uslubiy markazida O'quv lug'atchiligi sektori (keyinchalik bu sektor A.S.Pushkin nomidagi rus tili institutiga ko'chirilgan)⁶ tashkil etilgan. 1969-yilda rus tili va

³ Saidova D. va boshq. O'zbek tiliga o'zlashgan forsa o'zlashma so'zlar o'quv lug'ati. – Toshkent, 2015 va boshq.

⁴ To'rayeva U., Shodmonova D. O'zbek tilining zid ma'noli so'zlar o'quv lug'ati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007-2009.

⁵ Shukurov O., Boymatova B. O'zbek tilining ma'nodosh so'zlar o'quv lug'ati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007-2009.

⁶ <http://ru.m.wikipedia.org/wiki/un>





adabiyoti o'qituvchilarining Birinchi xalqaro anjumani o'tkazilib, unda yaratilayotgan o'quv lug'atlarini moliyalashtirish, nashr ishlarini amalga oshirish masalalari ko'rib chiqiladi. A.S.Pushkin nomidagi rus tili instituti «O'quv lug'atchiligi» sektori vakillarining Leningrad, Samarqand, Minsk, Toshkent, Odessa, Kembridj (AQSH), Amerst (AQSH) shaharlarida simpozium va an'anaviy anjumanlar o'tkazilib, qator muammolar hal etiladi; mavzu doirasida 50 dan ortiq ilmiy tadqiqotlar olib boriladi. 1976-yil 23-30-yanvar kunlari Moskvada o'quv lug'atchiligi va leksikani o'qitish metodikasi masalalariga bag'ishlangan Birinchi umumittifoq anjumani bo'lib o'tadi. Varshavada alohida «O'quv lug'atlari» markazi faoliyat olib borib, 1976-yilning 23-28-avgust kunlari bo'lib o'tgan rus tili va adabiyoti o'qituvchilarining xalqaro Uchinchi kongressi ham o'quv lug'atchiligining dolzarb masalalariga bag'ishlanadi. Ana shu xatti-harakatlar samarasi o'laroq rus o'quv lug'atchiligi yuqori pog'onaga ko'tariladi va ulkan yutuqlarni qo'lga kiritadi. Yevropada o'quv lug'atchiligi o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga to'la erishib, bugungi kunda lug'atlarni elektronlashtirish, kompyuter lingvistikasini rivojlantirish masalalari bilan shug'ullanmoqda. Biz sovet ta'lim siyosati milliy tafakkur va ongini shakllantirishga tazyiq qilgan, o'zbek o'quv lug'atchiligining rivojlanishiga to'sqinlik qilgan degan fikrdan yiroqmiz. ⁷Milliy maktablarda o'qitiladigan rus tili darslari va o'quv lug'atlari masalalariga bag'ishlangan umumittifoq miqyosidagi anjumanlarning ikkitasi Samarqand va Toshkent shaharlarida o'tgan. Rus maktablari uchun qator o'quv lug'atlari yaratilib, davlat tomonidan nashr qilinib ommalashtirilayotgan bir paytda o'zbek maktablari uchun ham ayrim lug'atlar yaratilgan, ammo bu tashabbus negadir kuchaytirilmagan. Ijodiy tafakkur sohiblarini yetishtirish asosan, rus maktablarida amalga oshirilganligi bois, aksariyat ota-onalar bolalarini rus maktablarida o'qitishgan va bu hol hozirgacha saqlanib kelmoqda. ⁸

Inson tafakkuri, ruhiyati va tili o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, ijodiy va mustaqil fikrlovchi shaxsni tarbiyalashda ona tili ta'limining roli beqiyosdir. Mustaqillik yillarida o'zbek ona tili ta'limi mazmunan yangilanib, o'quvchini mustaqil fikrlash, erkin so'zlash va yozma nutqni savodli ifodalashga yo'naltirishga katta e'tibor qaratilmoqda. G'arb va Rossiya ta'lim tajribalarida o'quv lug'atchiligi muhim o'rin

⁷ Mengliyev B., Bahriddinova B. O'zbek tilining so'z tarkibi o'quv lug'ati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007.

⁸ To'rayeva U., Shodmonova D. O'zbek tilining zid ma'noli so'zlar o'quv lug'ati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007-2009.





tutib, til o'qitishning samarali vositasiga aylangan. O'zbek ta'lim tizimida ham darsliklarga yordamchi sifatida o'quv lug'atlarini yaratish, ularni elektron shaklga o'tkazish, kompyuter lingvistikasi bilan uyg'unlashtirish zarur. Shu yo'l bilan o'quvchilarda tilga muhabbat, so'z boyligini oshirish va nutq madaniyatini rivojlantirish orqali milliy tafakkur va ma'naviyatni yuksaltirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mengliyev B., Bahridinova B. O'zbek tilining so'z tarkibi o'quv lug'ati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007.
2. Shukurov O., Boymatova B. O'zbek tilining ma'nodosh so'zlar o'quv lug'ati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007-2009.
3. To'rayeva U., Shodmonova D. O'zbek tilining zid ma'noli so'zlar o'quv lug'ati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007-2009.
4. Saidova D. va boshq. O'zbek tiliga o'zlashgan forsha o'zlashma so'zlar o'quv lug'ati. – Toshkent, 2015 va boshq.
5. Rahimov A. Kompyuter lingvistikasi asoslari. – T.: Akademyashr, 2011.
6. Mirtojiev. M. —O'zbek tili leksikologiyasi va leksikografiyasi, Toshkent, 2000.
7. Norxo'jayeva X. O'zbek tilining eskirgan so'zlari o'quv lug'ati. – Qarshi, 2006.
8. To'rayeva U., Shodmonova D. O'zbek tilining zid ma'noli so'zlar o'quv lug'ati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007-2009.
9. To'rayeva U., Shodmonova D. O'zbek tilining zid ma'noli so'zlar o'quv lug'ati. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007-2009.
10. http://www.tdshi.uz/index.php?option=com_content&view=article&id=205&Itemid=128
11. <http://www.nokia.uz/uz/about/pressrel/1518.htm>
12. <http://ru.wikipedia.org/wiki>

